



O'ZBEKISTON VA TURKMANISTON KONSTITUTSIYALARI TAHLILI

Omondavlatova Seivinch Ilhom qizi

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

1-bosqich talabasi

Tel.: +998 91 981 47 37

E-mail: sevinchomondavlatova20@gmail.com

Annotatsiya: *Konstitutsiya asosiy qonun sifatida davlatning jahon hamjamiyatidagi o'rnini va uning hududida amalda mavjud bo'lgan siyosiy tizimni belgilab beradi. Ushbu maqolada O'zbekiston va Turkmaniston Konstitutsiyalari qiyoslash tarzida o'rganiladi hamda Konstitutsiyalar orqali davlatning boshqaruv tizimi, ma'muriy-hududiy tuzilishi, fuqarolarning huquq va erkinliklari ta'minlanishi va kafolatlanishi tahlil qilinadi. Ulardagi o'xshash va farqli jihatlari ko'rib chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *Konstitutsiya, davlat, huquq.*

**ANALYSIS OF THE CONSTITUTIONS OF UZBEKISTAN AND
TURKMENISTAN**

Annotation: *The Constitution, as the fundamental law, defines the state's position within the international community and the political system in place within its territory. This article presents a comparative study of the Constitutions of Uzbekistan and Turkmenistan, analyzing the governance system, administrative-territorial structure, and the guarantees and protection of citizens' rights and freedoms as established by these Constitutions. The similarities and differences between them are also examined.*

Key words: *Constitution, state, law*

АНАЛИЗ КОНСТИТУЦИЙ УЗБЕКИСТАНА И ТУРКМЕНИСТАНА

Аннотация: *Конституция как основной закон государства определяет его место в мировом сообществе и действующую на его территории политическую систему. В данной статье проводится сравнительное изучение Конституций Узбекистана и Туркменистана. Анализируются вопросы государственного управления, административно-территориального устройства, а также обеспечения и гарантирования прав и свобод граждан,*



закреплённые в данных Конституциях. Рассматриваются их сходства и различия.

Ключевые слова: Конституция, государство, право.

KIRISH:

Konstitutsiya asosiy qonun sifatida davlatning jahon hamjamiyatidagi o'rnini va uning hududida amalda mavjud bo'lgan siyosiy tizimni belgilab beradi. Ushbu maqolada O'zbekiston va Turkmaniston Konstitutsiyalari qiyoslash tarzida o'rganiladi hamda Konstitutsiyalar orqali davlatning boshqaruv tizimi, ma'muriy-hududiy tuzilishi, fuqarolarning huquq va erkinliklari ta'minlanishi va kafolatlanishi tahlil qilinadi. Ulardagi o'xshash va farqli jihatlari ko'rib chiqiladi.

Konstitutsiya – davlatning oliy normativ-huquqiy hujjati. Mamlakatda qabul qilinayotgan davlatning asosiy qonuni.[1] Konstitutsiya vositasida davlatning boshqaruv tizimi, tuzilishi, hokimiyat organlarining tashkil etilishi hamda hokimiyat va fuqarolar o'rtasidagi munosabat belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan bo'lib, 2023-yildagi yangi tahrirga ko'ra 6 bo'lim, 27 bob va 155 ta moddadan iborat [2]. Turkmaniston Konstitutsiyasi esa 1992-yil 18-mayda qabul qilingan bo'lib, 2023-yildagi yangi tahrirga ko'ra 8 bo'lim va 142 ta moddani o'z ichiga oladi [3]. Turkmaniston Konstitutsiyasining tuzilishida boblarning mavjud emasligi ular o'rtasidagi dastlabki farqlardan biridir.

O'zbekiston Respublikasi aralash respublika shakliga ega [4]. Prezident mamlakatimiz fuqarolari tomonidan saylanadi, hukumat (Vazirlar Mahkamasi, keyingi o'rinlarda hukumat) ni tuzishda Prezident va Oliy Majlis ishtirok etadi hamda va hukumat ular yonida hisobdor bo'ladi. Hukumat faoliyati Oliy Majlis tomonidan nazorat qilinadi yoxud Oliy Majlis hukumat a'zolariga nisbatan ishonchsizlik votumi berishi mumkin. Prezident Parlament palatalarini tarqatib yuborish vakolatiga ega. Turkmaniston Respublikasi Konstitutsiyasining 1-moddasida keltirilishicha, Turkmaniston Respublikasi boshqaruv shakliga ko'ra – prezidentlik respublikasi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 11-moddasiga ko'ra hokimiyat uchga bo'linadi: qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati. Turkmaniston Respublikasi Konstitutsiyasining 68-moddasiga ko'ra esa davlat hokimiyati to'rt turga bo'linadi: Prezident, Mejlis (Parlament), Vazirlar Mahkamasi, Oliy Sud. O'zbekiston Respublikasida ham, Turkmaniston Respublikasida ham Prezident – davlat boshlig'idir. Ikkala davlatda ham Prezident yetti yil muddatga saylanadi. O'zbekiston Respublikasida president ikki muddat ortiq saylanishi mumkin emas,



Turkmaniston Respublikasida esa muddat belgilanmagan. Prezident nomzodlariga qo'yiladigan shartlarda ham ba'zi farqli jihatlar mavjud: O'zbekiston Respublikasida o'ttiz besh yoshga to'lgan, saylovga qadar o'n yil mamlakat hududida muqim yashagan, davlat tilini yaxshi biladigan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi Prezident bo'lishi mumkin; Turkmaniston Respublikasida esa saylovga qadar qirq yoshga to'lgan, mamlakat hududida o'n besh yil muqim yashagan, davlat tilini biladigan Turkmaniston fuqarosi Prezident bo'lishi mumkin. Qonun chiqarish vakolati ikki davlatda ham Parlamentga tegishli. O'zbekiston Respublikasida Parlament "Oliy Majlis" deb ataladi va u ikki palatadan iborat: Senat va Qonunchilik palatasi. Turkmaniston Respublikasi Parlamenti "Mejlis" deb ataladi va u bitta palatadan iborat. Parlament a'zolari sonida ham bir muncha farqli jihatlar ko'zga tashlanadi, ya'ni O'zbekistonda ularning umumiy soni 225 nafarni tashkil etsa, Turkmanistonda 125 nafarni tashkil etadi. Ularning nomzodligiga ham ba'zi talablar mavjud: O'zbekiston Respublikasida yigirma besh yoshga to'lgan, saylovgacha kamida besh yil mamlakatimiz hududida muqim yashayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi Parlament a'zosi bo'lishi mumkin; Turkmaniston Respublikasida yigirma besh yoshga to'lgan, mamlakat hududida kamida o'n yil muqim yashayotgan Turkmaniston Respublikasi fuqarosi Parlament a'zosi bo'lishi mumkin. Ijro hokimiyatini Vazirlar Mahkamasi amalga oshiradi. O'zbekiston boshqaruvning aralash respublika shakliga xos bo'lganligi sababli, Vazirlar Mahkamasiga Bosh Vazir raislik qiladi. Turkmaniston boshqaruvning prezidenlik respublikasi shakliga ega bo'lganligi uchun Vazirlar Mahkamasiga bevosita Prezident rahbarlik qiladi. Sudlar adolatli sudlovni ta'minlovchi yagona hokimiyat organi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida ham, Turkmaniston Respublikasida ham Oliy Sud mavjud, ammo farqli jihati Turkmaniston Respublikasida Konstitutsiyaviy sud organi yoki uning vakolatlariga oid modda uchramaydi. Ikki Respublika ham tuzilish shakliga ko'ra unitar davlat.

O'zbekiston Respublikasida ham, Turkmaniston Respublikasida ham demokratik siyosiy rejim mavjud bo'lganligi sababli inson huquq va erkinliklari davlat tomonidan himoya qilinadi. Davlatlar Konstitusiyasida ham jahon hamjamiyati tomonidan qabul qilingan va ma'qullangan ko'plab xalqaro normalar uchraydi. Fuqarolarning shaxsiy, siyosiy, ma'daniy, iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik huquqlarga ega ekanligi va ular davlat tomonidan kafolatlanishi belgilab qo'yilgan. Fuqarolarning huquq va erkinliklari hamda burchlariga oid moddalar o'xshash, shu sababli farqli jihatlar ko'zga tashlanmaydi. Fuqarolar shaxsiy hayot daxlsizligi, saylash va saylanish, bepul umumiy o'rta ta'lim olish, iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanish, qonunda belgilangan hollarda ijtimoiy yordam olish hamda qulay-atrof





muhitga ega bo'lish huquqlariga ega. Konstitutsiya fuqarolarga faqatgina huquqlar beribgina qolmasdan, qonundan belgilangan ayrim burchlarni ham belgilaydi. Xususan, Konstitutsiya va qonunlarga rioya etish, tabiatni asrash va muhofaza qilish, Vatanni himoya qilish va harbiy xizmatni o'tash (ikki respublikada ham ,asosan, erkaklar uchun), qonunda belgilangan soliqlarni va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash, milliy an'analar va tarixiy merosni hurmat qilish va asrab-avaylash (O'zbekiston Respublikasida mamlakatimiz fuqarolari uchun, Turkmaniston Respublikasida mamlakatda bo'lib turgan har bir inson uchun).

Ikki davlat Konstitutsiyasida ham prokurorlar faoliyati alohida yoritilgan, chunki ular mamlakatdagi qonunlarning aniq va bir xilda amalga oshirilishi uchun javobgar hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida alohida bob sifatida olingan advokatura haqidagi ma'lumot Turkmaniston Konstitutsiyasida uchramaydi.

Umuman olganda O'zbekiston va Turkmaniston Konstitutsiyalarida jiddiy farqlar ko'zga tashlanmaydi. Asosiy farqlar ularning boshqaruv tizimida, davlat hokimiyatining tashkil etilishi, Prezident va Mejlis a'zosi bo'lishdagi nomzodlikka talablarda uchraydi. Fikrimizcha, Konstitutsiyalarda mavjud farqlar , asosan, aholi soni va boshqaruv tuzimidagi ayrim tafovutlar sababli yuzaga kelgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Konstitutsiya.gov.uz
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (yangi tahrir, 30.04 2023)
3. Turkmaniston Respublikasi Konstitutsiyasi (yangi tahrir, 21.01.2023)
4. O'zbekiston Respublikasi davlat boshqaruv shakli, tuzilishi va siyosiy rejimining o'ziga xos xususiyatlari; Avazov Jamshid Ahad o'g'li; (SJIF 2024)

